Qabul qilindi: 24-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 26-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 28-noyabr 2026-yil

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI

Raximova G.A.

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonlarining milliy madaniyat rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri, uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda milliy-madaniy qadriyatlar transformatsiyasining ustuvor yo‘nalishlari kompleks tahlil etiladi. Xususan, globallashuv sharoitida milliy madaniy o‘zlikni saqlash, tarixiy xotira va ma’naviy merosning uzviyligini ta’minlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari yoritiladi. Milliy madaniyatni rivojlantirishda an’ana va innovatsiya, milliylik va umuminsoniylik, mahalliy madaniy o‘ziga xoslik va global integratsiya o‘rtasidagi dialektik munosabatlarning ahamiyati asoslanadi. Shu asosda globallashuv sharoitida milliy madaniyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi ijtimoiy, ma’naviy, institutsional va innovatsion omillarni takomillashtirishga doir ilmiy-nazariy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, milliy madaniyat, madaniy transformatsiya, ijtimoiy-falsafiy omillar, milliy o‘zlik, madaniy identiklik, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, madaniy meros, hududiy differensiatsiya, madaniyatlararo muloqot, raqamli madaniyat, madaniy integratsiya, ma’naviy taraqqiyot, an’ana va innovatsiya, madaniy xilma-xillik, milliy-madaniy barqarorlik.

KIRISH

Globallashuv zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning murakkab, ko‘p qirrali va ziddiyatli jarayoni sifatida insoniyat hayotining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy hamda madaniy sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur jarayon davlatlar, xalqlar va turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning jadallashuvi, axborot almashinuvining

kengayishi, ilmiy-texnologik yutuqlarning transmilliy miqyosda tarqalishi hamda madaniy tajribalarning integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi. Globallashuvning mazmun-mohiyati faqatgina geografik chegaralarning shartli tus olishi yoki iqtisodiy munosabatlarning kengayishi bilan cheklanmaydi, balki u jamiyatning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong shakllari, turmush tarzi, madaniy identifikatsiyasi va ma’naviy taraqqiyot mexanizmlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Globallashuv sharoitida milliy madaniyatning rivojlanishi o‘ziga xos dialektik xususiyat kasb etadi. Bir tomondan, xalqaro madaniy aloqalarning kengayishi milliy san’at, adabiyot, urf-odatlar, an’analar va ma’naviy merosning jahon miqyosida ommalashishiga imkoniyat yaratadi. Ikkinchi tomondan, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi, iste’molchilik munosabatlarining kuchayishi, standartlashuv va madaniy unifikatsiya jarayonlari milliy o‘ziga xoslikning zaiflashuvi xavfini yuzaga chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan, milliy madaniyatni rivojlantirish masalasi globallashuvning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan anglash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Milliy madaniyat tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan, muayyan xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi, ma’naviy ehtiyojlari, axloqiy me’yorlari, estetik qarashlari va turmush tarzini o‘zida mujassamlashtirgan yaxlit ijtimoiy hodisadir. U xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligini anglash darajasi, ma’naviy qadriyatlari va kelajak taraqqiyotiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Shu sababli milliy madaniyatni rivojlantirishni faqat madaniy meros namunalarini saqlash yoki san’at turlarini qo‘llab-quvvatlash bilan chegaralash mumkin emas. Bu jarayon, avvalo, jamiyatning ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, milliy tafakkurni rivojlantirish, ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirish va tarixiy-madaniy davomiylikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Milliy madaniyatning rivojlanishi ijtimoiy borliq, ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi, tarixiy xotira va inson faoliyatining o‘zaro aloqadorligi asosida kechadigan murakkab jarayondir. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan madaniyat jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini

birlashtiruvchi, inson faoliyatining mazmunini belgilovchi hamda ijtimoiy taraqqiyotning muhim mezonlarini shakllantiruvchi tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniyatning ijtimoiy mohiyati uning inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqadorlikni ta’minlash, ijtimoiy tajribani uzatish va umumiy qadriyatlar tizimini shakllantirishdagi funksiyalarida namoyon bo‘ladi.

Globallashuv sharoitida milliy madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, mazkur jarayon jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, ma’naviy salohiyati, ijtimoiy munosabatlari va innovatsion imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p bosqichli hodisadir. Milliy madaniyatning rivojlanishi, avvalo, tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlar davomiyligi va ijtimoiy birdamlik kabi fundamental omillarning barqarorligiga tayanadi. Shu bilan birga, zamonaviy globallashuv jarayonlari milliy madaniyat oldiga yangi kommunikativ, texnologik va institutsional talablarni qo‘ymoqda.

Milliy madaniyatni rivojlantirishda an’anaviy qadriyatlarni mutlaq o‘zgarmas shaklda saqlash emas, balki ularning tarixiy va ma’naviy mohiyatini zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki madaniyatning barqarorligi uning o‘zgarishlardan xoli bo‘lishida emas, balki tarixiy o‘ziga xosligini yo‘qotmagan holda yangi taraqqiyot sharoitlariga moslasha olishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, milliy madaniyatning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuvi uning o‘ziga xosligini cheklovchi jarayon sifatida emas, balki xalqning tarixiy-madaniy salohiyatini xalqaro miqyosda namoyon etish imkoniyati sifatida baholanishi lozim. Bunda milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligi, madaniyatlararo muloqot, ijodiy hamkorlik va o‘zaro hurmat muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Globallashuv sharoitida milliy madaniyatni rivojlantirish jamiyatning ma’naviy mustaqilligi, tarixiy xotirasi, milliy identifikatsiyasi va sivilizatsion taraqqiyot salohiyatini mustahkamlovchi strategik ijtimoiy-falsafiy jarayon hisoblanadi. Uning samaradorligi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, tarixiy vorisiylik va innovatsion yangilanish, ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga bog‘liq

bo‘ladi.

Milliy madaniyatning rivojlanish jarayoni jamiyatdagi turli ijtimoiy subyektlarning faoliyati, manfaatlari va o‘zaro munosabatlari bilan belgilanadigan murakkab ijtimoiy hodisadir. Ushbu jarayonda inson nafaqat mavjud madaniy tajribani o‘zlashtiruvchi, balki yangi madaniy mazmun, ijtimoiy me’yorlar va estetik qarashlarni shakllantiruvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, milliy madaniyat taraqqiyotining muhim sharti jamiyat a’zolarining madaniy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish, ularning ijodiy tashabbuslarini rag‘batlantirish va ijtimoiy faolligini institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Globallashuv sharoitida ijtimoiy subyektlarning madaniy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Xususan, ijodkorlar, olimlar, ziyolilar, tadbirkorlar, jamoat tashkilotlari va mustaqil madaniy tashabbuskorlar milliy madaniyatning yangi mazmun va shakllarini yuzaga chiqarishda muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu holat madaniyatni faqat yuqoridan boshqariladigan yoki tayyor holda avlodlarga uzatiladigan tizim sifatida emas, balki jamiyatning turli qatlamlari tomonidan muntazam ravishda yaratiladigan ijtimoiy ijod mahsuli sifatida talqin etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ijtimoiy subyektlar faolligining rivojlanishi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi.

Masalan;

– madaniy tashabbuslarni mustaqil ravishda ilgari surish;

– jamoatchilik asosidagi ijodiy loyihalarni shakllantirish;

– madaniy muhitni takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy hamkorlik;

– madaniy mahsulotlar yaratishda turli kasbiy guruhlarning ishtiroki;

– ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqadigan yangi madaniy yo‘nalishlarni rivojlantirish masalasi yotadi.

Milliy madaniyatning taraqqiyoti jamiyat a’zolarining madaniy jarayonlardagi subyektiv faolligi va ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish darajasi bilan ham belgilanadi. Madaniy makonning hududiy differensiatsiyasi va mahalliy madaniy rivojlanish jarayoni, milliy madaniyat yagona mazmuniy tizimni tashkil etishi bilan birga,

turli hududlarning tarixiy shakllanish xususiyatlari, tabiiy-geografik sharoitlari, xo‘jalik yuritish tajribasi va ijtimoiy munosabatlari asosida o‘ziga xos madaniy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Hududiy madaniy differensiatsiya muayyan mintaqaga xos madaniy belgilar, ijodiy an’analar, me’moriy uslublar, xalq amaliy san’ati va ijtimoiy turmush shakllarining farqlanishini anglatadi. Bu farqlar milliy madaniyatning ichki rang-barangligini ta’minlaydigan muhim omildir. Masalan, Farg‘ona vodiysining hunarmandchilik an’analari, Buxoro va Samarqandning me’moriy-madaniy merosi, Xorazmning musiqa va raqs san’ati, Qoraqalpog‘istonning o‘ziga xos badiiy ifoda shakllari milliy madaniyatning hududiy ko‘p qirraliligini namoyon etadi. Mazkur hududiy madaniy xususiyatlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, milliy madaniyatning yaxlitligi uning barcha hududlarda bir xil shaklda namoyon bo‘lishi bilan emas, balki turli lokal madaniy tizimlarning umumiy tarixiy-ma’naviy makonda o‘zaro uyg‘unlashuvi bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, hududiy farqlanish va milliy yaxlitlik bir-birini inkor etuvchi hodisalar emas, aksincha, ular milliy madaniyat taraqqiyotining o‘zaro to‘ldiruvchi dialektik jihatlarini tashkil etadi. Har bir hududning o‘ziga xos madaniy tajribasi umumiy milliy madaniy makonni yangi mazmun bilan boyitadi, uning ichki ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi va sivilizatsion taraqqiyot salohiyatini mustahkamlaydi.

Globallashuv sharoitida hududiy madaniy differensiatsiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki xalqaro madaniy aloqalarning kengayishi sharoitida mahalliy madaniy xususiyatlarni saqlash bilan bir qatorda, ularni zamonaviy ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalash zarurati yuzaga kelmoqda. Bunda hududiy madaniyatning rivojlanishi faqat an’anaviy shakllarni qayta namoyish etish bilan cheklanmasdan, balki ularning zamonaviy ijodiy talqinlarini shakllantirish, yangi badiiy yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashtirish va xalqaro madaniy muloqotga olib chiqishni ham taqozo etadi. Falsafiy umumlashma sifatida aytish mumkinki, hududiy madaniy differensiatsiya milliy madaniyatning ichki ko‘p qatlamliligi, tarixiy davomiyligi va ijodiy rivojlanish salohiyatini belgilovchi muhim ijtimoiy-falsafiy qonuniyatlardan biridir. Uning mohiyati lokal madaniy xususiyatlarning alohida mavjudligida emas, balki ularning o‘zaro ta’siri, bir-birini boyitishi va umumiy milliy

madaniy makonni shakllantirishdagi funksional ishtirokida namoyon bo‘ladi. Shu bois hududiy madaniy tafovutlarni bartaraf etilishi lozim bo‘lgan farqlar sifatida emas, balki milliy madaniyatning ichki diversifikatsiyasi, estetik boyligi va sivilizatsion o‘ziga xosligini ta’minlovchi konstruktiv resurs sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Milliy madaniyatning hududiy differensiatsiyasi lokal madaniy tajribalarning tarixiy-geografik va ijtimoiy determinantlar asosida shakllanishi hamda ularning umummilliy madaniy makon bilan dialektik integratsiyalashuvi natijasida milliy madaniyatning ichki yaxlitligi va ijodiy salohiyatini ta’minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-sonli “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-sonli “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyundagi PF-103-sonli “Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. – Lex.uz.

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

9. Bauman Z. Culture in a Liquid Modern World. – Cambridge: Polity Press, 2011.